
Ekoshahar hududidagi "Yashil maydon"larda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda

Xabaringiz bor, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mamlakatimizning barcha hududlarida turli manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekilgan. Bu borada Farg'ona shahrida ham salmoqli ishlar bajarildi.

Yozning issiq haroratida daraxtlarni sug'orish va parvarishlash ishlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov bu borada olib borilayotgan ishlarni kunlik nazorat qilib bordi. Daraxtlarni parvarishlash, yangi yashil maydonlarni barpo etish yuzasidan mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berib borildi.

Doimiy tarzda viloyat ekologiya boshqarmasining shahar inspeksiyasi hamda obodonlashtirish boshqarmasi xodimlari tomonidan daraxtlarni tongi sug'orish va dorilash ishlari bajarib kelinmoqda.

Albatta, xushmanzara tabiati, go'zal bog'lari, yashil maydonlari hamda xashamatli va barcha qulayliklarga ega ko'p qavatli uylari bo'lgan maskan shahrimizning "tashrif qog'ozi"ga aylanadi.

2023-08-17 13:45:53